



SIRKULAR IQTISODIYOTDA BARQAROR TARAQQIYOT

*i.f.n., dots. **Sodikov Zokir***

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ORCID: 0000-0002-0195-4573

zokirsodiqov1@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sirkulyar iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotga erishishdagi roli, ahamiyati va mexanizmlari tahlil qilinadi. Sirkulyar iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu model barqaror ishlab chiqarish va iste'mol tizimini yaratish orqali iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik hamda atrof-muhit muhofazasini uyg'unlashtiradi. Tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyotning afzalliklari, global tajriba hamda uni milliy iqtisodiyot sharoitida joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sirkulyar iqtisodiyot, barqaror taraqqiyot, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, yashil iqtisodiyot, barqaror ishlab chiqarish va iste'mol, ekologik muvozanat.

УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКЕ

*к.э.н., доц. **Содиқов Зоқир***

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В данной работе анализируются роль, значение и механизмы циркулярной экономики в достижении устойчивого развития. Циркулярная экономика способствует рациональному использованию ресурсов, сокращению отходов и обеспечению экологической устойчивости. Кроме того, данная модель объединяет экономический рост, социальное благополучие и охрану окружающей среды за счёт формирования устойчивых систем производства и потребления. В исследовании рассматриваются преимущества циркулярной экономики, международный опыт и возможности её внедрения в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: циркулярная экономика, устойчивое развитие, рациональное использование ресурсов, переработка отходов, зелёная экономика, устойчивое производство и потребление, экологический баланс.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE CIRCULAR ECONOMY

PhD, assoc. prof. **Sodikov Zokir**
International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. *This study analyzes the role, importance, and mechanisms of the circular economy in achieving sustainable development. The circular economy contributes to rational use of resources, reduction of waste, and ensuring environmental sustainability. Furthermore, this model harmonizes economic growth, social well-being, and environmental protection through the establishment of sustainable production and consumption systems. The research examines the advantages of the circular economy, international experience, and opportunities for its implementation in the national economy.*

Keywords: *circular economy, sustainable development, resource efficiency, waste recycling, green economy, sustainable production and consumption, environmental balance.*

Kirish.

So'nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida sirkulyar iqtisodiyot va uning barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan uyg'unligi alohida e'tibor qozonmoqda. An'anaviy "ol-ishlat-tashla" modeliga asoslangan chiziqli iqtisodiyot tabiat resurslarining cheklanganligi, chiqindilarning ortib borishi va ekologik muvozanatning buzilishi tufayli o'zini oqlamay qo'ymoqda. Shu sababli ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarida resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, atrof-muhitni asrashni ta'minlovchi yangi iqtisodiy yondashuv bo'lmish sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi jadal rivojlanmoqda. BMT tomonidan qabul qilingan 17 ta Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari bugungi kunda jahon miqyosidagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarning yagona kompleks tizimini belgilab berdi. Ushbu maqsadlar ichida resurslardan oqilona foydalanish, barqaror ishlab chiqarish va iste'molni ta'minlash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, bioxilma-xillikni saqlash kabi vazifalar sirkulyar iqtisodiyot g'oyasi bilan bevosita uzviy bog'liq. Shu bois sirkulyar iqtisodiyot barqaror taraqqiyotga erishishda muhim mexanizm sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon hamjamiyatidagi jadal ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va globalashuv jarayonining shiddatli tarzda avj olishi, kishilar turmush sharoiti va farovonlik darajasini mislsiz darajada yuksaltirish bilan bir qatorda tabiatga va atrof-muhitga keskin darajada salbiy ta'sir qildi hamda nazorat qilish imkoniyati bo'lmagan hajmda chiqindilarning chiqarilishiga sabab bo'ldi. Natijada bu muammolar insoniyat uchun halokatli vaziyatni yuzaga chiqishiga va kelajakni barbod qiladigan darajada bo'lgani uchun uni bartaraf qilish borasida barcha chora-tadbirlar bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarga ham zaruriyat paydo bo'ldi. Shu bois olib borilgan ko'plab tadqiqot yo'nalishlaridan biri bu sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish va uni izchil rivojlantirish hisoblanadi. Hozirda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar xalqaro miqyosda keng ommalashib, ko'plab mutaxassislar va tadqiqotchilar tomonidan olib borilmoqda. Xususan, shulardan biri Geissdoerfer va boshqalar (2017) hammuallifligida tayyorlangan "The Circular Economy – A new sustainability paradigm? ("Sirkulyar iqtisodiyot – barqarorlikning yangi paradigmalarimi?")" mavzusidagi tadqiqot. Mavzuda "Sirkulyar iqtisodiyot barqaror taraqqiyot paradigmasining o'rnini bosishi va uni to'ldirishi" masalasi muhokama qilinadi. Maqolaning mualliflari sirkulyar iqtisodiyot atamasi oxirgi o'n yillikda ommaviy ravishda ishlatila boshlaganini ma'lum qiladi. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot modelini ko'pincha chiqindilarni kamaytirish, resurslarni qayta ishlatish va yopiq aylanish tizimlarini joriy qilish doirasida muhokama qiladi. Ammo bu tushuncha barqaror rivojlanish (sustainability) va boshqa konsepsiyalar (masalan, "yashil o'sish", "resurs samaradorligi") bilan qanday bog'lanishi

masalasiga ko'p e'tibor qaratmagan. Maqolada sirkulyar iqtisodiyotni boshqa barqarorlik paradigmalari (ekodizayn, sanoat ekologiyasi, cradle-to-cradle (beshikdan beshikgacha) va h.k.) bilan taqqoslaydi. Shu bois, sirkulyar iqtisodiyot bilan boshqa barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik grafik modeli orqali ko'rsatib beriladi. Asosiy natijalar sifatida bir qator o'ziga xos jihatlar keltirilgan. Xususan, sirkulyar iqtisodiyot bu "yopiq sikl tizimlarida resurslarni maksimal darajada qayta ishlatish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik salbiy ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan iqtisodiy model" sifatida ta'riflanadi.

Sirkulyar iqtisodiyot borasidagi tadqiqotlardan yana biri bu Shaharia (2018) tomonidan "Circular Economy: The Beauty of Circularity in Value Chain (Sirkulyar iqtisodiyot: qiymat zanjiridagi aylanmalikning go'zalligi)" mavzusida yozilgan maqola hisoblanadi. Muallif sirkulyar iqtisodiyotning qiymat zanjiri (value chain) konsepsiyasida qanday ishlashini o'rganadi. Asosiy vazifa, mahsulot ishlab chiqarish, iste'mol qilish va qayta ishlash jarayonlarida "sirkulyar" model qanday qilib resurslarni samarali boshqaradi va yangi qiymat yaratishini ko'rsatib berish bo'lgan. Bunda qiymat zanjiri — xomashyodan tortib, tayyor mahsulot, xizmat, iste'mol va chiqindigacha bo'lgan butun jarayonni qamrab olishini, sirkulyarlik esa bu jarayonni yopiq aylana sifatida tashkil etib, chiqindi → resurs → mahsulot → yana qayta foydalanishdan iboratligini va go'zalligi (beauty)ni ko'rsatadi. Muallif "beauty" so'zini metafora sifatida ishlatadi, ya'ni sirkulyar model iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy afzalliklarni uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi.

Sirkulyar iqtisodiyot borasidagi ilmiy izlanishlardan biri bu Sariatli (2017) tomonidan "Linear economy versus circular economy: a comparative and analyzer study for optimization of economy for sustainability (Chiziqli iqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyot: barqarorlik uchun iqtisodiyotni optimallashtirish bo'yicha qiyosiy va analitik tadqiqot)" mavzusida yozilgan ilmiy maqola hisoblanadi. Maqoladan muallifning asosiy maqsadi, bu an'anaviy chiziqli iqtisodiyot (linear economy) bilan sirkulyar iqtisodiyot (circular economy)ni taqqoslash, ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish va barqaror rivojlanish uchun eng optimal modelni ko'rsatib berish bo'lgan. Chiziqli iqtisodiyot modelining asosiy xususiyatlari "olish – ishlab chiqarish – iste'mol qilish – tashlab yuborish" zanjiriga tayanadi. Shu bois, xomashyo va resurslarni ko'p sarflaydi, chiqindilarni ko'p chiqaradi, qisqa muddatli iqtisodiy manfaat keltiradi. Ammo, uzoq muddatda ekologik xavflarni oshiradi va barqaror vaziyatga ega emas. Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari esa "qayta ishlash – qayta foydalanish – qayta ishlab chiqarish" prinsiplari bo'yicha ishlaydi. Natijada, resurslardan samarali foydalanadi va ularni iqtisodiy aylanishda uzoqroq saqlab qoladi, chiqindini kamaytiradi va chiqindini resursga aylantiradi, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni yaratadi.

Globalashuv avj olib borayotgan hozirgi davrda sirkulyar iqtisodiyot masalasida qilingan muhim tadqiqotlardan navbatdagisi "Bocken va boshqalar (2016) tomonidan "Product design and business model strategies for a circular economy (Sirkulyar iqtisodiyot uchun mahsulot dizayni va biznes modeli strategiyalari)" mavzusidagi ilmiy izlanishlari hisoblanadi. Maqolada sirkulyar iqtisodiyot uchun mahsulot dizayni va biznes model strategiyalari tahlil qilinadi. Mualliflar asosiy e'tiborni resurslarni aylanishda ushlab qolish va barqaror qiymat yaratishga qaratadilar. Mualliflarning asosiy g'oyalarida mahsulot dizayni sirkulyar iqtisodiyotning markazida turadi. Chunki, mahsulotning umr davri, qayta ishlanishi va ta'mirlash imkoniyati dizaynga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, biznes modellari sirkulyar iqtisodiyotga moslashishi va foyda olish faqat yangi mahsulot sotishdan emas, balki xizmat Bocken va boshqa hammualliflarning sirkulyar iqtisodiyot amaliyotida dizayn bilan biznes modeli o'rtasidagi integratsiyaning qanchalik muhimligini asoslaydi.

Sirkulyar iqtisodiyotni konseptual jihatdan tadqiq qilgan olimlardan biri bu Fonseca (2018) bo'lib, u o'zining "Building Blocks of a Circular Economy (Sirkulyar iqtisodiyotning qurilish bloklari)" mavzusidagi tadqiqotida sirkulyar iqtisodiyotning asosiy poydevorlarini — ya'ni uning konseptual "building blocks"larini tushuntirishga ustuvorlik bergan. Fonseca

barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun sirkulyar iqtisodiyotga o'tish zarurligini va bu jarayonni amalga oshirish uchun bir nechta muhim jihatlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, asosiy g'oya sifatida sirkulyar iqtisodiyot faqat chiqindilarni kamaytirish emas, balki butun iqtisodiy tizimni qayta loyihalash, mahsulotlar va xizmatlarda resurslardan samarali foydalanish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil, statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

An'anaviy energiya tizimini "yashillashtirish", ya'ni, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish va global Issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish muhim bo'lsa-da, qolgan sohalardagi chiqindi emissiyalarini qisqartirish uchun sirkulyar iqtisodiyot choralari zarur hisoblanadi. Sirkulyar (materiallarni samarali dizayn qilish, qayta foydalanish, remanifestatsiya, qayta ishlash) tadbirlari iqlim bo'yicha qo'shimcha o'zgarishlarni kamayishiga imkoniyat beradi. Sirkulyar strategiyalar material intensivligini kamaytiradi, xomashyo importiga bog'liqlikni so'ndiradi va chiqindilarni resursga aylantirishni jadallashtiradi — bu biologik va mineral resurslarga nisbatan bosimni kamaytiradi.

Global iqtisodiy imkoniyatlar tahlilidan sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jahon miqyosda katta hajmda moliyaviy imkoniyatlar yaratishi ma'lum bo'ladi. Bunga asosiy sohalarda qiymat zanjirini optimallashtirish va yangi xizmatlar (remont, leasing, qayta ishlash) orqali erishiladi. Yevropa miqyosida sirkulyar choralarning iqtisodiy natijalari sezilarli darajada bo'lib, ba'zi tahlillarda 700 mingdan ortiq ish o'rni yaratilganligi va katta hajmda moliyaviy natijalar qo'lga kiritilganligi ma'lum bo'lmoqda. Ular asosan qurilish, tekstil, elektronika kabi sirkulyar tadbirlardan yuqori darajada ta'sirlanuvchi sektorlarga xos hisoblanadi. Sektoral o'zgarishlar sifatida sanoatning strukturasi material-intensivlikdan xizmat sig'imlikka yo'naltiriladi. Bu strukturaviy o'tish jarayoni sifatida ba'zan ish o'rinlarini ko'paytirishi, ba'zan material-intensivligi ish o'rinlarini qisqartirishi mumkin.

Umuman, sirkulyar iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini (qayta ishlash, remanufacture, logistika, servislari) yaratilishi kutiladi. Shu bilan birga, mehnat bozorida qayta tayyorlash va ko'nikmalarni oshirish (upskilling/reskilling) ustuvor talabga aylanadi. OECD tomonidan qilingan tadqiqotlarda ish o'rinlari samarasi ijobiy bo'lishi, ammo uning hajmi va taqsimoti yuritilayotgan siyosatlariga bog'liqligi ta'kidlanadi. Sirkulyar modellar mahsulotlarning past narxlari va yangi mikro va SME (Small and Medium Enterprises) imkoniyatlari orqali mahalliy daromad manbalarini hosil qiladi. Ammo, mazkur jarayonda maqbullashgan o'tish siyosati yuritilmasa, ayrim ijtimoiy toifalar jarayondan ziyon ko'rishi mumkin.

Muvaffaqiyatli o'tish uchun integratsiyalashgan siyosatlar yuritilishi, xususan, EPR (extended producer responsibility), yashil davlat xaridlari, soliq va rag'batlantiruvchi mexanizmlari, standartlar va sertifikatlash tizimining yakdilligi muhim hisoblanadi. Bozor muvaffaqiyatsizligi sifatida tashqi xarajatlar hisobga olinmasa (masalan, atrof-muhit zararining badali), qayta ishlangan mahsulotlar raqobatbardosh bo'lmasligi kabi muammolar kelib chiqishi mumkin. Investitsiya va moliyalashdagi bo'shliqlar sifatida sirkulyar infratuzilma (qayta ishlash zavodlari, texnoparklar)ni tashkil etish katta hajmdagi mablag'larni talab qiladi. Shuningdek, sifatli qayta ishlash texnologiyalari va tarmoqlar taqchilligi muammosi kuzatiladi. Ayni paytda, materiallar oqimi va sirkulyarlik indikatorlarini standartlashtirish juda murakkab bo'lgani uchun uning hisobini yuritish muammosi mavjud. Ijtimoiy-mehnat xavfi sifatida sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayonida ba'zi ishlar yo'qolishi va yangi ishlar bo'yicha ko'nikmalar yetishmasligi kabi muammolar kelib chiqishi mumkin.

Jahon va mintaqaviy tahlillardan, sirkulyar iqtisodiyot O'zbekistonda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, chiqindilarni resursga aylantirish va energetika xavfsizligini ta'minlash

nuqtayi nazaridan katta manfaatlariga zamin hozirlashi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, Jahon banki va BMT tahlillarida sirkulyar yondashuvlar milliy iqtisodiyotda yashil o'sishni va tabiiy kapitalni himoya qilishini qayd qilgan. Mamlakatda chiqindilarni energetik maqsadda foydalanish (waste-to-energy) loyihalari va donorlarni qo'llab-quvvatlaydigan dasturlarning mavjudligi bu borada boshlang'ich infratuzilma yaratishda omil bo'ladi.

Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy tizimda ishlab chiqariladigan mahsulotlar imkon qadar uzoq muddat foydalanilishi, ularning butun hayotiy sikli davomida resurs samaradorligi ta'minlanishi, chiqindilar esa ikkilamchi xomashyo sifatida qayta iqtisodiy aylanmaga kiritilishi kerak. Bu yondashuv nafaqat atrof-muhitga bosimni kamaytiradi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ham yuzaga chiqaradi, qayta ishlash sanoati rivojlanishi, yashil texnologiyalarni joriy etish, innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko'plab davlatlar, jumladan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini milliy rivojlanish strategiyalariga keng joriy qilmoqda. Bu boradagi xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sirkulyar iqtisodiyot barqaror taraqqiyotning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy o'lchovlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi samarali konsepsiyadir. O'zbekiston sharoitida ham ushbu yondashuvni joriy etish dolzarb bo'lib, u resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, shuningdek, ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning barqaror taraqqiyotga ta'siri, xalqaro tajribalar va milliy iqtisodiyot sharoitida uni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot orqali Barqaror Taraqqiyot Maqsadlariga erishishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlar uyg'unligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Sirkulyar iqtisodiyot global miqyosda sezilarli iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalar keltirishi, yangi iqtisodiy rivojlanish paradigmasiga aylanib borayotganligi uning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Sirkulyar iqtisodiyot mavjud "mahsulotning hayotiy sikli tugashi" konsepsiyasiga asoslangan modeldan ishlab chiqarish va iste'molning yangi modeliga o'tishni ko'zda tutadi. Bu yangi model resurslar iste'molini kamaytirishga, turli mahsulot va materiallarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol jarayonlarida qayta ishlash hamda qayta foydalanishga qaratilgan yondashuv tarzi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda resurslarning aylanishini rag'batlantirishning asosiy maqsadi – barqaror taraqqiyotga erishish hisoblanadi. Chunki, sirkulyar iqtisodiyot 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Barqaror Taraqqiyot Maqsadlari qabul qilingan va 2030-yilgacha dunyoda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun belgilangan 17 ta global maqsad bilan chambarchas bog'liq jarayon hisoblanadi. Ayni paytda, sirkulyar iqtisodiyot – bu regenerativ (tiklanuvchi) ishlab chiqarish tizimiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy model hisoblanadi. Ushbu yondashuv uchun ko'pincha boshqa ifodalar ham ishlatiladi, xususan, chiqindisiz iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, yopiq siklli iqtisodiyot kabi tushunchalar shular jumlasidandir. Mazkur yondashuv "mahsulot hayoti tugashi" konsepsiyasining "mahsulotni ta'mirlash va tiklash" konsepsiyasi bilan almashtirishni, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga ustuvorlik berilishini, mahsulotni qayta ishlashga to'sqinlik qiluvchi toksik kimyoviy moddalarni imkoniyati boricha ishlab chiqarish jarayonidan butunlay chiqarib tashlashni, shuningdek, tashkil etishni va dizaynlarni, materiallarni, mahsulotlarni va natijada butun biznes modellarini takomillashtirish orqali chiqindilarni kamaytirishni hamda mavjud imkoniyatlardan to'liq samarali foydalanishini ko'zda tutadi.

Sirkulyar iqtisodiyot mavjud ishlab chiqarish sikli doirasida moddiy resurslarni qayta foydalanishga yo'naltirishni talab etadi. Bu esa tabiatni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va mahsulotlar hayotini uzaytirish borasida bir qator vazifalar bajarilishini ko'zda tutadi. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda ko'plab qiyinchiliklar mavjud bo'lishiga qaramay, sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishdan olinadigan samarali natijalar ancha yuqoriligi ma'lum. Sirkulyar iqtisodiyotni joriy etish "mahsulot qiymati

sikli” bo'yicha moddiy resurslardan foydalanish zanjirida mavjud zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanishni osonlashtiruvchi o'zgarishlarni talab etadi. Bunday transformatsiyalar asosan texnologik emas, balki iqtisodiy va tashkiliy jihatdan murakkab o'zgarishlar orqali amalga oshiriladi. Sirkulyar iqtisodiyotga o'tishda muhandislik va dizayn xizmatlari sohalariga investitsiyalarni jalb etishni, mahsulotni ishlab chiqish bosqichidayoq qayta ishlash imkoniyatlarini inobatga olishni, chiqindilarni qayta ishlash texnologiya va jarayonlarini joriy etishni, resurslar samaradorligini oshirishni va ikkilamchi xomashyo bilan ishlash imkonini beradigan sanoatlarni modernizatsiya qilishni, biotexnologiyaga asoslangan mahsulotlarni rivojlantirishni va ko'paytirishni talab etadi. Zero, hozirgi kunda jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat sirkulyar iqtisodiyot nuqtayi nazaridan asosan sanoati rivojlangan taraqqiy etgan mamlakatlardagi isrofgarchilikka asoslangan va ratsionallashtirmagan turmush tarzi global miqyosda tabiiy ekotizimlarning yemirilishiga, cheklanligi tufayli turli resurslarning yetishmasligiga va tobora beqarorlashib borayotgan iqlimga olib kelmoqda. Shu bilan birga, aholining o'sishi va past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarda jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni oshirishga bo'lgan zaruriyati resurslarga qo'shimcha bosim o'tkazilishiga sabab bo'lmoqda. Qolaversa, biznes vakillari ko'pincha ekologik siyosatni raqobatbardoshlikka tahdid sifatida ko'radi. Lekin, nima bo'lganda ham, ular barcha resurslardan samarali foydalanishni imkoniyat sifatida ko'rib chiqishi va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida faoliyatlarini muvofiqlashtirishlari jiddiy ravishda talab etiladi.

Hozirgi an'anaviy iqtisodiyot modeli "tezkor aylanish" tamoyiliga asoslangan bo'lib, unda iste'mol tovarlari qanchalik tez almashtirilsa, bu ishlab chiqaruvchilar uchun shunchalik foydali jarayon hisoblanadi. Natijada barcha tabiiy resurslardan, xomashyolardan, yerosti va yerusti boyliklaridan hamda yer resurslaridan tadbirkorlar o'z foydasini ko'paytirish uchun juda samarasiz foydalanib chiqindiga chiqarmoqda. Bunday izchil va chegarasiz xarakterga ega bo'lgan cheksiz ehtiyojlarni cheklangan resurslar bilan ta'minlash imkoniyati yo'q bo'lgan sharoitda muammoni yechish talab etiladi. Agar, mazkur muammoning yechimlari topilmasa, insoniyat yaqin kelajakda katta halokatga duch kelishga va butunlay qirilib ketishga ongli ravishda xayrixoh bo'lishi kerak bo'ladi. Lekin, insonlar aqliy salohiyati va fan-texnika taraqqiyoti asosida erishgan muvaffaqiyati orqali barcha sohalarda, xususan, tabiat bilan iqtisodiyot aspektidagi muammolarni bartaraf qilishga va kishilarning hayot ne'matlaridan bahra olib, yashashlariga harakat qilishi tabiiy hisoblanadi. Ana shunday muammolarni hal qilish va insonlar hayotini yengillashtirish uchun qilinayotgan faoliyatlardan yana biri bu sirkulyar iqtisodiyot modelini milliy xo'jaliklarda amalda joriy etish va uni rivojlantirish faoliyatidir. Chunki, bu borada mavjud muammolarni bartaraf qilish va yangicha yutuqlarni qo'lga kiritish uchun qilinayotgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy harakatlar ana shundan darak beradi. Shuning uchun milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va iste'molni amalga oshirish jarayonida har bir narsani tejab-tergash, chiqindilarni kamaytirish, mavjud har turli resurslardan samarali foydalanish, qayta ishlash va qayta foydalanish orqali sirkulyar iqtisodiyot tizimini barpo qilish jamiyatlar uchun ko'plab manfaatlar keltiradi va aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Sirkulyar iqtisodiyot bugungi global iqtisodiy rivojlanishning muhim konsepsiyalaridan biri bo'lib, u resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini barqarorlashtirishni ustuvor vazifa hisoblaydi. Mazkur modelning asosiy ustunligi bu iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlikni bir vaqtning o'zida ta'minlash borasida faoliyat olib borishidir. Sirkulyar iqtisodiyot barqaror taraqqiyotning 17 ta maqsadidan aksariyat yo'nalishlari bilan mutanosib va to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, taqchil resurslardan samarali foydalanish energiya va xomashyoni tejaydi, issiqxona gazlari chiqindilarining kamayishi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga yordam beradi, yangi ish o'rinlari va innovatsion biznes-modellar yaratiladi, "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jadallashadi

va barqaror ishlab chiqarish tizimi vujudga keladi. Shuningdek, davlat tomonidan soliq va rag'batlantirish mexanizmlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, qayta tiklanuvchi energiyani kengaytirish va "yashillashtirish" dasturlarini joriy etish sirkulyar iqtisodiyot samarasini oshiradi. Umuman olganda, sirkulyar iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy samarani oshiruvchi, balki ekologik xavfsizlikni, ijtimoiy adolatni va uzoq muddatli barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan strategik model hisoblanadi. Shu bois milliy iqtisodiyotda keng tatbiq etish resurs tanqisligi, chiqindilar muammosi va iqlim o'zgarishi kabi global chaqiriqlarga samarali javob bo'ladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Bocken, N.M.P., et al. (2016). Product design and business model strategies for a circular economy. Journal of Industrial and Production Engineering, 33(5), pp.308–320.

Fonseca, M., (2018). Building Blocks of a Circular Economy. Available at: <https://www.intelligenthq.com/building-blocks-of-a-circular-economy>.

Geissdoerfer, M., et al. (2017). The Circular Economy – A new sustainability paradigm? Journal of Cleaner Production, 143, pp.757–768. doi:10.1016/j.jclepro.2016.12.048.

Sariatli, F., (2017). Linear economy versus circular economy: a comparative and analyzer study for optimization of economy for sustainability. Visegrad Journal on Bioeconomy and Sustainable Development, 6(1), pp.31–34.

Shaharia, P., (2018). Circular Economy: The Beauty of Circularity in Value Chain. Journal of Economics and Business, 1(4), pp.584–598.